

“SABBA’I SAYYOR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR TAVSIFI

*Mushtariybonu To‘lqinova Abdullajon qizi
Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Sabba’i sayyor” dostonidagi obrazlar tasviri, talqini, asarning maqsadi kabilar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, tasvir, motiv, hajr, do‘stlik, xiyonat, to‘g‘riso‘zlik, vafo, sadoqat, tabiat, sevgi.

Аннотация

В данной статье анализируются поэма “Сабъаи сайер” и психика, интерпретация, образ персонажей и цель произведения.

Ключевые слова: образ, изображения, мотив, дружба, предательство, щедрость, верность, природа, любовь.

Annotation

In this article, the description, interpretation and purpose of the work are analyzed in the epic “Sabba’i sayyor”.

Key words: image, picture, motive, friendship, loyalty love, nature.

A.Navoiy “Xamsa” sining to‘rtinchi dostoni “Sabba’i sayyor” (yetti kezuvcchi) deb ataladi. Asar hijriy 889-yilning, milodiy 1484-yilning iyun oyida yozib tugatilgan. Turkiy tilda birinchi bo‘lib, bu mavzuni A.Navoiy qalamga oladi va “Sabba’i sayyor” deb ataydi. “Sabba’i sayyor” dostoni 38 bob, 5009 baytdan iborat.

“Doston muqaddimasi an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e’tibor qaratib, badiiy san’ati vositasida falakning yeti qavat ekanligi, yetti gumbazning tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo‘linishi, yetti ko‘k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi” [1,134]

A.Navoiy ushbu dostoni o‘zidan avvalgi Xamsanavis ijodkorlar yozgan dostonlardan farq qiladi. Ularning asosiy e’tibori shoh Bahrom qissasiga qaratilgan bo‘lsa, Navoiy asosiy e’tiborni musofirlar tomonidan aytilgan hikoyalarga qaratadi va Bahrom qissasini ana shu hikoyalarning aytilish vositasiga aylantiradi.

Ma’lumki, har bir xalq adabiyotining o‘ziga xos taraflari, ramzlari va timsollari mavjud. Ular uzoq davrlardan buyon o‘zgarib, sayqallanib mukammal holiga kelgan. Navoiy ushbu dostonidagi obrazlar orqali kitobxonga ko‘plab fazilatlarni singdirmoqchi bo‘ladi.

Dostondagi Dilorom obrazi orqali haqiqiy sharq ayolining xarakterini ochib bergan. Mir Alisher Navoiy sharq ayollari tavsifida vafoyaga shunday ta’rif beradi: “Vafo shunday bir pokiza matlubaki, u ko‘ngli pok bo‘lmagan kimsaga yaqinlashmaydi, Vafo shunday asl gavharki, u insoniyat tojiga ziynatdir” [2,1151]. Ana shunday vafo va sadoqatni o‘zida jamlagan qahramonni A.Navoiy Dilorom obrazida gavdalantiradi. Uning tasvirini yaratishda bevosita tabiat unsurlari oy, quyosh, yulduz kabilarga murojaat etadi. Qahramonning yuzlari nasrin gullariga, ko‘zlari ohu ko‘zllariga tashbeh qilinadi. Go‘zalning ikki chakkasidan tushgan kokilini

tun va kechaga mengzaydi. Ma'shuqaning qulog'idagi halqalar tasvir qilinar ekan, oy va quyosh timsollari yordamga keladi. Ikki qulog'idagi ikki sirg'a yulduzdek yaltirab turibdi. Ammo bu yulduzlar shundayki xuddi quyosh atrofidagi fitnagar yulduzlarni eslatadi:

Har qulog'ida durri raxshanda,
Ikki kavkab kibi durraxshanda.
Mehr atrofida makon aylab,
Fitna qilmoq uchun qiron aylab
Dema qad, nozanin niholi bixisht,
Ruh sarmoyasidin anga sirisht.
Jilva qilmoqdakim, ravon ko'runub,
Ruhdin go'yiyo nishon ko'rinub.

Odatda yorning qaddu qomati sarv daraxtiga o'xshatilgan, ammo Navoiy "Sabba'i sayyor" dagi qahramonining qomatini jannatdagina bo'ladigan niholining o'zi deya ta'riflaydi. Bundan tashqari shoir Diloromning sozandalik xususiyati to'g'risida ham mulohaza yuritadi. Shoirning nazdida Dilorom qaqnus qushiga, jamoli tovusning tovlanishi, ovozi esa bulbul ohangidek yoqimli:

Chunki qaqnuslik aylabon izhor,
O't solib olam ichra qaqnusvor.
Suqbadin lahni zorlar bilinib,
Sekribon o'tkim torlar bilinib.
Bo'yla qaqnusqa bu sifat tovus,
Hamnavolig' aro bo'lib ma'nus.
Garchi tovusdek jamoli aning,
Bulbul alhon ila maqoli aning.
Bulbul oso chekib bu ming doston,
Bo'lubon qaqnus anga hamdoston.

Dilorom va Bahrom topishishlari va ayanchli holda ajralishganidan so'ng ham garchi Bahrom aybdor bo'lsada Dilorom Shoh Bahromni sevar edi. Shuning uchun ham hamisha unga bo'lgan sadoqatini saqladi. Boshiga tushganlari uchun uni ayblamadi. Shoir ushbu lavhalar orqali bir ayolning ma'naviy jihatdan qanchalar baland ekanini ko'rsatadi. Bu sevgi insonni qanchalar yuksaklikka ko'tarishiga bir nishonadir. Dilorom tashqi ko'rinishi, ma'naviy dunyosi, xulq-atvori bilan ham nihoyatda go'zal qiz. Shuning uchun ham u asarda sadoqat va vafo timsol sifatida gavdalanadi.

Bahrom va Dilorom sarguzashtlarida Bahrom obrazi ikki xil tarzda bayon etilgan. Birinchisida Bahrom oshiq, ikkinchisida podshoh. Shoir bu obrazni tasvirlayotganda "ishq" so'zi uning ishqdagi yonib kuyishlarini, iztiroblarini qalamga oladi. Bu esa oshiq sifatida tasvirlanishini anglatadi. Ammo doston davomida ko'rishimiz mumkinki, Bahromda shohlik, mansab, g'urur oshiqlikdan ustun kelgan. Bundan kelib chiqadiki, Bahrom dostonidagi murakkab timsollardan biri.

Bahrom Diloromni o'z sochlariga bog'lab sahroga tashlagan edi. Bu mastlik va g'azabning natijasi. Bu ishini anglab yetganida Diloromni izlashga tushadi. Uning hajr iztiroblarini Navoiy o'quvchi ko'z o'ngida jonlantiradi. Shohning ichiga shunday chaqmoq tushdiki, uning butun vujudi alanga ichida qoladi. Hijronda qolgan Bahrom

ruhiyatini tasvirlar ekan, Diloromning qoshlari Bahromni oy kabi nozik va xasta qilib qo‘yganligi, u yorining kiyik ko‘zlarini eslar ekan, qalbining dashtida yuzlab jayronlarning yugurib yurganini o‘ylar, uning nolasidan quyosh ham, oy ham o‘rtanar edi. Ko‘zidan oqqan qondan dasht-u biyobon qip-qizil rang, la‘lga bo‘yalgan edi. Ajdaholarni yenggan Bahromni ishq ajdahosi xas kabi ezg‘ilab tashlaydi. Sherlarni zabun etgan pahlavon ishq dardi qarshisida ojiz va chalajon bo‘lib qoladi. “Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o‘z davridagi ba‘zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o‘tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo‘lishi zarurligi, xalq ahvolidan g‘ofillik va aysh-ishratg berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmqochi bo‘lgan muhim g‘oyalardan biridir”.[3,147]

Dostondagi qissa voqealari bayonida musofirlar tilidan aytilgan yetti hikoya mazmuni badiiyati, g‘oyasi va qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. A.Navoiy har bir hikoyadagi obraz orqali kitobxonga nimadir yetkazmoqchi bo‘ladi. Hikoyalarda do‘stlik naqadar ulug‘ligi, ya‘ni do‘st timsoli Farrux va Axiy, Ma‘sud va Juna kabilar tasviri orqali yoritib berilgan. Muqbil va Mudbir hikoyasida esa biri to‘g‘riso‘zlik timsoli, biri esa uning tamomila aksi—yolg‘on so‘zlovchi, o‘z manfaatini ustun qo‘yuvchi sifatida tasvirlanadi.

A.Navoiyning deyarli har bir asarida shu jumladan, “Sabba‘i sayyor” dostonidagi hikoyalarda ham to‘g‘riso‘zlik va yolg‘onchilik, yaxshi va yomon, salbiy va ijobiy, obrazlariga ega. Bu orqali A.Navoiy har doim to‘g‘rilik egrilikning, haqiqat yolg‘onning, yaxshilik yomonlikning ustidan g‘alaba qilishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sirojiddinov. Sh, Yusupova. D, Davlatov.O “ Navoiyshunoslik”. –Toshkent: “Tamaddun”, 2019.
2. Navoiy. A, “Xamsa” . –Toshkent: “Fan va ta‘lim”, 2023.
3. Shamsiyeva. H, “ “Sabba‘i sayyor” dostonida sharq ayollari milliy xarakteri”.- Toshkent: “Fan va ta‘lim”, 2023.
4. Internet materiallari.